

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI JAMOAT  
TARTIBINI SAQLASH BRIGADASI HARBIY XIZMATCHILARI  
TOMONIDAN JAMOAT TARTIBINI SAQLASH YO'NALISHI BO'YICHA  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

---

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОХРАНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО  
ПОРЯДКА ВОЕННОСЛУЖАЩИМИ БРИГАДЫ ОБЩЕСТВЕННОГО  
ПОРЯДКА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**INCREASING THE EFFICIENCY OF THE PUBLIC ORDER  
MAINTENANCE BRIGADE OF THE NATIONAL GUARD OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE DIRECTION OF PUBLIC ORDER  
MAINTENANCE**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
Magistratura tinglovchisi mayor Shukurov Bobur O'tkirovich*

**Annotatsiya:** Jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, tartibni saqlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Jamoat tartibini saqlash brigadalarining harbiy xizmatchilari, ushbu sohadagi eng murakkab va mas'uliyatli vazifalarni bajaradigan kuchlardan biridir. Ushbu maqolada, harbiy xizmatchilarning jamoat tartibini saqlash sohasidagi ish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari, samarali ishlash usullari va zaruriy chora-tadbirlar tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlar, jamoat joyi, harbiy xizmatchi, milliy gvardiya

**Аннотация:** Он играет важную роль в поддержании общественного порядка, обеспечении безопасности граждан, поддержании порядка и укреплении социальной стабильности в обществе. Военнослужащие бригад общественного порядка являются одной из сил, выполняющих наиболее сложные и ответственные задачи в этой сфере. В данной статье проанализированы основные направления повышения эффективности работы военнослужащих в сфере охраны общественного порядка, эффективные методы работы и необходимые меры

**Ключевые слова:** общественная безопасность, общественный порядок, публичные мероприятия, общественное место, военнослужащие, национальная гвардия

**Abstract:** Public order plays an important role in ensuring the safety of citizens, maintaining order and strengthening social stability in society. Military personnel of

public order brigades are one of the forces performing the most complex and responsible tasks in this area. This article analyzes the main areas of increasing the efficiency of military personnel in the field of public order, effective methods of work and necessary measures

**Key words:** public safety, public order, public events, public place, military personnel, national guard

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, elyurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha muhim bo'g'in sanalib kelmoqda. Sababi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yil kunidagi PF 27 sonli farmoniga asosan "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda hamda istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi" belgilab o'tilgan.

Shu o'rinda jamoat xavfsizligi subektlari haqida to'xtalib o'tish maqsadga muofiq bo'ladi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtiroy etuvchi subyektlardan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

o'ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi;

vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e'lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlaydi;

terorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etadi;

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlaydi;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi.

Jamoat tartibini saqlash bo'yicha ish samaradorligini oshirish esa, o'z navbatida, nafaqat jamiyat xavfsizligini, balki davlat tizimining barqarorligini ham ta'minlaydi. Jamoat tartibini saqlash har qanday jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash, qonun va tartibni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni amalga oshirishda jamoat tartibini saqlash brigadalarining harbiy xizmatchilari muhim rol o'ynaydi.

Jamoat tartibini saqlash brigadalarining harbiy xizmatchilari xizmat olib borish davomida bir qator muhim vazifalarni bajaradi.

**Xavfsizlikni ta'minlash:** Jamoat joylarida fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, huququzarliklarni va jinoiy faoliyatlarini oldini olish.

**Omaviy tadbirlar va yig'ilishlar paytida tartibni saqlash:** Omaviy yig'ilishlar, mitinglar yoki sport tadbirlari kabi ijtimoiy voqealar vaqtida tartibni ta'minlash.

**Tartibni qayta tiklash:** Tartibni buzuvchi harakatlarga tezkor javob berish va normativ-huquqiy ta'sirlar orqali tartibni tiklash.

Jamoat tartibini saqlash brigadalarining harbiy xizmatchilari, ayniqsa, favqulodda holatlar, ijtimoiy zo'ravonliklar, terroristik tahdidlar va tabiiy ofatlar holatlarida muhim rol o'ynaydi.

Jamoat tartibini saqlash brigadalarining harbiy xizmatchilari ish samaradorligini oshirishning asosiy omillariga **quyidagilar kiradi:**

### **Harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish**

Harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish samaradorlikni ta'minlashning muhim jihatidir. Bunda quyidagi chora-tadbirlar muhim o'rinn tutadi:

Maxsus tayyorgarlik kurslari: Harbiy xizmatchilarni jamoat tartibini saqlash bo'yicha maxsus kurslar va treninglarda ishtirok etishini ta'minlash. Bu kurslarda

huquqni muhofaza qilish, stressni boshqarish, fuqarolar bilan muloqot qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish zarur.

Jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish: Jismoniy kuch va chidamlilikni oshirish maqsadida jismoniy tayyorgarlikning doimiy ravishda amalga oshirilishi zarur. Jismoniy tayyorgarlik, tezkor harakatlanish, kuchli muhitda qaror qabul qilish va tezkor javob berish imkoniyatini yaratadi.

### **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish**

Zamonaviy texnologiyalar jamoat tartibini saqlashda katta yordam beradi. Harbiy xizmatchilarning ishlash samaradorligini oshirish uchun quyidagi texnologik yangiliklarni joriy etish zarur:

Video kuzatuv tizimlari va aqlii texnologiyalar: Ommaviy joylarda video kuzatuv tizimlarini joriy etish, bu esa noqonuniy harakatlarni aniqlash va ularni tezda bartaraf etishga imkon yaratadi.

Raqamli tizimlar va mobil ilovalar: Harbiy xizmatchilar uchun maxsus raqamli tizimlar va mobil ilovalar orqali real vaqt rejimida axborot almashish va vaziyatni tez tahlil qilish imkoniyati yaratish.

Sun'iy intellekt va analitik vositalar: Keng miqyosdagi ijtimoiy voqealarni va tahdidlarni oldindan bashorat qilishda sun'iy intellekt tizimlari va analitik vositalardan foydalanish.

### **Psixologik tayyorgarlik**

Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi jamoat tartibini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, noxush holatlar yuzaga kelganda, psixologik barqarorlikni saqlash zarur. Bunda quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:

Stressni boshqarish va emotsiyal barqarorlik: Harbiy xizmatchilarga stressni boshqarish va emotsiyal barqarorlikni saqlash bo'yicha maxsus treninglar va kurslar o'tkazish.

Psixologik yordam va maslahat xizmati: Favqulodda vaziyatlarda harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko'rsatish, ularni jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlash.

### **Fuqarolar bilan hamkorlik**

Jamoat tartibini saqlash brigadalarining samarali faoliyat yuritishi uchun fuqarolar bilan yaxshi aloqalar o'rnatish juda muhimdir. Fuqarolarni xavfsizlikka jalb qilish va ularning huquqlarini hurmat qilish orqali jamiyatda ishonchni oshirish mumkin.

Targ'ibot va tushuntirish ishlari: Harbiy xizmatchilar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan fuqarolarga xavfsizlik choralarini tushuntirish, jamiyatda o'zaro hurmatni va tartibni saqlashni targ'ib qilish.

Ommaviy tadbirlar va treninglar o'tkazish: Fuqarolarni jamoat xavfsizligi bo'yicha treninglarga jalb qilish va ularni eng yaxshi amaliyotlar bilan tanishtirish.

**Xulosa.** Jamoat tartibini saqlash brigadalarining harbiy xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladigan ish samaradorligini oshirish, jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim omildir. Samarali ishlash uchun malakali va psixologik tayyorlangan xizmatchilar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, fuqarolar bilan hamkorlik va to‘g‘ri boshqaruv tizimi jamoat tartibini saqlash ishlarini yuqori samaradorlikka olib keladi. Tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ish metodlari va fuqarolarning xavfsizlikka nisbatan mas’uliyatli yondashuvi orqali, jamoat tartibini saqlashda erishiladigan samaradorlik sezilarli darajada oshadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” qonuni
2. 18.11.2020 yildagi O‘RQ-647-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” qonuni 15.06.2022 yildagi O‘RQ-778-sonli “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida” qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni
4. Понятие «военно-профессиональная подготовка», ее сущность и содержание К. В. Аксёнов УДК 37